O‘quvchilarda xitoy tilini o‘rgatish va o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirish

SamDCHTI xitoy tili yo‘nalishi
I kurs talabasi Axmadova J.U.
Ilmiy rahbar: Xitoy filologiyasi
kafedrasi katta o‘qituvchisi Quliyeva D.A.

Annotatsiya

Ushbu maqola xitoy tilini o‘qitish va o‘rganishga oid turli samarali metodlarni yoritishga qaratilgan. O‘quvchilarning iyerogliflarni vizual tanishi orqali o‘rganishi, talaffuz va tonlarni to‘g‘ri qo‘llashi, so‘z boyligini oshirish, shuningdek, muntazam o‘qish odatlarini shakllantirish jarayonlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada interaktiv mashqlar, o‘yinlar va amaliy strategiyalar orqali o‘quvchilarning mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari tavsiya etiladi. Shu bilan birga, dars jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish va tilni yanada samarali o‘zlashtirishga yordam beruvchi yondashuvlar ham taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘quvchi, xitoy tili, o‘qish ko‘nikmalari, iyerogliflarni o‘rganish, talaffuz, so‘z boyligi, amaliy mashqlar, interaktiv o‘quv usullari.

Teaching Chinese and developing students' reading skills.

Abstract

This article discusses various effective methods for teaching and learning Chinese. It examines the processes of students learning Chinese characters through visual recognition, correct pronunciation and tone, vocabulary development, and the formation of regular reading habits. The article recommends ways to develop students' independent reading skills through interactive exercises, games, and practical strategies. At the same time, approaches are presented that help overcome difficulties that arise during the lesson and master the language more effectively.

Keywords: Student, Chinese language, reading skills, learning hieroglyphs, pronunciation, vocabulary, practical exercises, interactive learning methods.

Преподавание китайского языка и развитие навыков чтения у учащихся.

Аннотация

В данной статье рассматриваются различные эффективные методы обучения и изучения китайского языка. Рассматриваются процессы усвоения учащимися китайских иероглифов посредством визуального распознавания, правильного произношения и тона, развития словарного запаса и формирования навыков регулярного чтения. В статье рекомендуются способы развития навыков самостоятельного чтения у учащихся с помощью интерактивных упражнений, игр и практических стратегий. Кроме того, представлены подходы, помогающие преодолеть трудности, возникающие в ходе урока, и более эффективно овладеть языком. **Ключевые слова:** учащийся, китайский язык, навыки чтения, изучение китайских иероглифов, произношение, словарный запас, практические упражнения, интерактивные методы обучения.

Bugungi globallashuv jarayonida zamonaviy ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaymoqda.Yangi texnologiyalar va zamonaviy asbob-uskunalar bilan birga ularning nomlari ham kirib kelmoqda.Bu jarayon esa o‘z-o‘zidan zamonaviy kasblarni talab etadi. Kelajagimiz bo‘lgan yoshlarni har tomonlama bilimli, yetuk va barkamol bo‘lib ulg‘ayishida ta’lim va tarbiyaning hamda til o‘rganishning o‘rni beqiyosdir. Xususan, Xitoyning iqtisodiy rivojlanishi va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida xitoy tiliga bo‘lgan talab ortib bormoqda (Zhao,

2018). Shu sababli o‘quvchilarda xitoy tilini o‘qish ko‘nikmasini to‘g‘ri shakllantirish masalasi dolzarb mavzu bo‘lib qolmoqda.

”Til bilgan el biladi” deb bekorga aytilmagan. Shunday ekan o‘quvchilarni o‘qitishda, til o‘rganishida turli zamonaviy ta’lim usullarini qo‘llab, ularning og‘zaki va yozma nutq savodxonligini rivojlantirish zarur. Muvaffaqiyatli o‘qish, til o‘rganish o‘quvchilarda nafaqat nutq va fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, balki madaniyatli va bilimli bo‘lishi uchun asos ham yaratadi. Bu esa xitoy tili fani o‘qituvchilarida katta mas’uliyat yuklaydi. O‘quvchilarda xitoy tili o‘qituvchilari turli xil usul va yondashuvlardan foydalangan holda o‘qish ko‘nikmalarini egallash uchun sharoit yaratishlari kerak. O‘qish — barcha til ko‘nikmalarining asosi hisoblanadi; bola o‘qishni puxta o‘rgansa, tinglab tushunish, gapirish va yozish ko‘nikmalari ham barqaror rivojlanadi (Li, 2018; Huang, 2020).

Xitoy tili boshqa ko‘plab tillardan bir necha jihatlari bilan farq qiladi va shulardan ba’zi eng muhimlarini sanab o‘tamiz.

Iyeroglif yozuvi. Xitoy tilida har bir so‘z alohida belgi — iyeroglif orqali yoziladi. Belgilarning shakli va ma’nosi bolalar uchun dastlab murakkab tuyulishi mumkin, bu holatning oldini olish uchun eng ko‘p qo‘llaniladigan iyerogliflardan boshlashni tavsiya qilgan bo‘lar edik.

Xitoy yozuvi murakkab ko‘rinsa ham, uni bosqichma-bosqich o‘rganish juda qulay: Avval 300–500 ta asosiy iyeroglifni o‘zlashtirib, har bir iyeroglifning tuzilishi va chizilish tartibini bilib hamda yodlash maslahat beriladi. Iyerogliflarni radikallar (asosiy qismlar) va kalitlar orqali yodlashni odat qilish lozim, chunki bu odat sizda iyerogliflarni yanada yaxshi esda olib qolinishiga yordam beradi. Kun, Pleco kabi electron mobil ilovalar bu jarayonda juda ham foydali hisoblaniladi.

Tonlar. Xitoy tilida bir xil bo‘g‘in turli tonlarda aytilganda butunlay boshqa ma’noni bildiradi. Shu sababli bolalar o‘qishni boshlaganda tovush va tonlarni eslab qolishlari zarur (Wang, 2020).Xitoy tili tonalligi bilan ajralib turadi: bir xil bo‘g‘in turli tonlarda aytilganda ma’nosi butunlay o‘zgaradi. Shu bois, boshlang‘ich bosqichdagi o‘quvchilarda tovush–ton uyg‘unligini eslab qolish, to‘g‘ri talaffuzni shakllantirish hamda so‘zlarni farqlash ko‘nikmasi juda muhim hisoblanadi (Wang, 2020).

Masalan, “ma” bo‘g‘ini turli tonlarda to‘rt xil ma’noni anglatadi:
mā (1-ton) — ona
má (2-ton) — kanop
mǎ (3-ton) — ot
mà (4-ton) — koyimoq
Xuddi shuningdek, “shi” bo‘g‘ini ham tonlarga qarab farqlanadi:
shī (1-ton) — o‘qituvchi
shí (2-ton) — o‘n (son)
shǐ (3-ton) — boshlamoq
shì (4-ton) — bo‘lmoq (to be), ish, shahar ko‘p ma’nolar
Yana bir keng uchraydigan misol — “jiu” bo‘g‘ini:
jiū (1-ton) — chalg‘itmoq, tortmoq
jiú (2-ton) — qayta tiklamoq, yangilamoq
jiǔ (3-ton) — to‘qqiz
jiù (4-ton) — darhol, tayyor, aynan shu

Bu misollar xitoy tilida tonlarni e’tiborsiz qoldirish imkoniyati yo‘qligini ko‘rsatadi. O‘quvchi tonni noto‘g‘ri ishlatsa, oddiy bo‘g‘in ham boshqa ma’noga o‘tib ketadi. Shu sababli boshlang‘ich bosqichda tonlarni tinglash, talaffuz qilish va farqlash mashqlari o‘qish ko‘nikmasining ajralmas qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Yozuv tartibi. Har bir iyeroglif aniq chiziq tartibida yozilishi kerak. Bu tartibni o‘rganmasak keyinchalik o‘qish qiyinlashadi va bu ma’lum bir tushunmovchilik va qiyiinchilikni yuzaga keltirishi mumkin.

Pinyin orqali talaffuzni shakllantirish. Dastlab Pinyin — iyerogliflar transkripsiyasi yozuvi yordamida talaffuzni o‘rgatish muhim (Li, 2018).

Bu bolalarga tovush va bo‘g‘inlarni to‘g‘ri talaffuz qilish imkonini beradi. Pinyin asoslarini mustahkam o‘zlashtirish lozim. Xitoy tili talaffuzi o‘ziga xos bo‘lib, unda 4 asosiy ton mavjud. Pinyin — xitoy tovushlarini transkripsiyada ifodalash tizimi hisoblanadi. Pinyindan foydalanib talaffuzni to‘g‘rilash quyidagi ijobiy jihatlarga sabab bo‘lishi mumkin:

- talaffuzni to‘g‘ri shakllantiradi;
- nutqni to‘g‘ri tushunishga yordam beradi;
- o‘qish va tinglash ko‘nikmasini yengillashtiradi;
- kelajakdagi ba’zi fonemik xatolarning oldini oladi.

Iyerogliflarni bosqichma-bosqich tanishtirish. O‘quvchiga avval eng oddiy, soda va qiziq ko‘rinadigan hamda tez-tez ishlatiladigan iyerogliflarni o‘rgatish lozim, masalan: 人, 口, 大, 小, 水

Shu tarzda u belgilarni vizual ravishda tanib oladi va ma’nolarini yodlaydi va bu dastlabki jarayon unga qiziqish uyg‘otib iyerogliflar yodlashdan qo‘rqishning oldini olishga yordam beradi.

Rasmlar va o‘yinlardan foydalanish. Rasmli kartochkalar, rangli plakatlar va o‘yin tarzidagi mashqlar o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga, bolalar belgini chizib ko‘rish orqali uni mustahkam eslab qoladi. Ko‘z xotirasi ishlab bolalarning xotirasida mustahkamroq o‘rin oladi.

Multimediali materiallar. Animatsion videolar, audio fayllar va interaktiv ilovalar bolalarning diqqatini jalb qiladi. Bu usul orqali til o‘rganuvchilarning xitoy tilini o‘rganishga qiziqishi yanada ortadi.

QR-kodli darsliklar. QR-kod orqali belgining talaffuzi va chiziq tartibini ko‘rsatish o‘qish jarayonini yengillashtiradi.QR-kodli darsliklardan foydalanish xitoy tili o‘quv jarayonida samaradorlikni oshiradi. Chunki QR-kod orqali beriladigan talaffuz namunalari va chiziq tartibining animatsion ko‘rinishda taqdim etilishi iyerogliflarning shakli, tuzilishi va fonetik jihatlarini bir vaqtda idrok etishga imkon yaratadi. Multimodal (audio–vizual) taqdimot o‘quvchining diqqatini faollashtiradi, murakkab grafemalarni yodda saqlashni osonlashtiradi hamda o‘qish ko‘nikmasining shakllanishini tezlashtiradi. Shu sababli raqamli qo‘shimcha materiallardan foydalanish an’anaviy darslikning ahborot sig‘imini kengaytirib, o‘quvchida tilni o‘zlashtirishning barqaror va tushunarli mexanizmini hosil qiladi.

Ota-onaning ishtiroki. Ota-onalar bilan birga mashqlar bajarish, iyerogliflarni takrorlash va kichik o‘yinlar bolalarning motivatsiyasini oshiradi. Ota-onalarga bu til yot bulsa, o‘quvchilar yodlagan matnlarini shunchaki eshitishlari yokida yozgan iyerogliflarini ko‘rib bolani maqtashlari ham yetarli hisoblanadi.Yuqoridagi asosiy vazifalar bilan bir qatorda quyidagi metodlardan foydalangan holda amaliy mashqlar bajarishni ham tavsiya qilish mumkin:

1. Match-game: Iyeroglifni rasmga moslash (Shen, 2005).
2. Copy-writing: Belgini to‘g‘ri tartibda yozish (Huang, 2020).
3. Mini reading: 2–3 jumlali qisqa matnlarni o‘qish (Li, 2018).
4. Memory game: Kartochkalarni eslab topish (Sun, 2019).
5. Story reading: Oddiy ertaklarni o‘qish (Zhao, 2018).

Xitoy tilini o‘rganish uchun tavsiyalar:

- ✓ Til o‘rganishda muvaffaqiyat siri — muntazamlikdadir. Kuniga kamida 15–20 daqiqa mashq qilish kerak.Shunda til o‘rganuvchining lug‘at boyligi oshadi, talaffuzi yaxshilanadi, eslab qolishi osonlashadi. Muntazamlik — qisqa vaqt ichida katta natija beradi.
- ✓ Tinglash ko‘nikmasini rivojlantirish zarur. Xitoycha nutqni eshitib tushunish birinchi bosqichlarda qiyin bo‘lishi tabiiy. Buning uchun: HSK audio materiali, xitoy tilidagi filmlar, podkastlar, osonlashtirilgan yangiliklar va multfilmlar tomosha qilish katta yordam beradi. Quloq vaqt o‘tishi bilan tilda ishlatiladigan tovushlarga moslashadi.

- ✓ Xitoy tilida ko‘proq so‘zlashish zarur.Gapirish eng muhim ko‘nikmalardan biri hisoblanadi.Faqat tinglab o‘tirish bilan nutq ko‘nikmasi rivojlanmaydi — tilni mukammal o‘rganish uchun faol muloqot zarur.
- ✓ So‘zlarni kontekstda o‘rganish muhim.Yodlash jarayonini osonlashtirish uchun so‘zlarni gaplarda qo‘llagan ma’qul. Misol uchun **学**习 (xuéxí — o‘rganmoq) **我学**习汉语。(Wǒ xuéxí Hànyǔ — Men xitoy tilini o‘rganaman.)

Quyida yana bir nechta sodda misollar:

1. **喜**欢 (xǐhuan — yoqtirmoq)

我喜欢音乐。

Wǒ xǐhuan yīnyuè — Men musiqani yoqtiraman.

2. **看** (kàn — ko‘rmoq, tomosha qilmoq)

她看电影。

Tā kàn diànyǐng — U film ko‘rmoqda.

3. **喝** (hē — ichmoq)

我喝水。

Wǒ hē shuǐ — Men suv ichaman.

4. **去** (qù — bormoq)

我们去学校。

Wǒmen qù xuéxiào — Biz maktabga boramiz.

5. 买 (mǎi — sotib olmoq)

他买苹果。

Tā mǎi píngguǒ — U olma sotib oldi.

Kontekst asosida o‘rganish jarayonida so‘zlar faqat yodlanmaydi, balki haqiqiy nutq situatsiyalarida qanday qo‘llanishi tushunarli bo‘ladi. Natijada so‘z boyligi barqaror shakllanadi, grammatik tuzilmalarni anglash esa sezilarli darajada yengillashadi.

Kontekst orqali eslab qolish tezlashadi, grammatikani tushunish esa sodda bo‘ladi.

- ✓ Xitoy madaniyati bilan tanishish lozim Tilni o‘rganish — bu faqat grammatikani egallash emas. Xalqning tarixi, an’analari, urf-odatlari bilan tanishish tilni chuqurroq anglashga, so‘z va iboralarni to‘g‘ri qo‘llashga, o‘rganishga, qiziqishni oshirishga yordam beradi. Xitoy musiqa, bayramlar, san’ati va madaniyati haqida materiallar yig‘ish, xitoy tili doirasida o‘tkaziladigan bayramlarda qatnashish bu jarayonni yanada maroqli va samarali qiladi.
- ✓ Aniq maqsad va reja tuzish. Samarali o‘rganish uchun maqsadlar bo‘lishi zarur. Masalan, 3 oyda 300–400 so‘z o‘zlashtirish, 6 oyda HSK 2, 1 yilda HSK 3 yoki 4 darajaga yetish va shu kabi. O‘zlashtirish jarayonini muntazam baholab borish zarur, bu motivatsiyani mustahkamlaydi va xitoy tili o‘rganish jarayonini samarali va tezroq oib borilishiga ko‘maklashadi.

O‘quvchilarda xitoy tilida o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirish vaqt, sabr va to‘g‘ri metodikani talab qiladi. Pinyin orqali boshlash, iyerogliflarni vizual tasvirlar bilan uyg‘unlashtirish, kichik matnlar bilan ishlash va o‘yin texnologiyalaridan foydalanish bola uchun o‘qishni osonlashtiradi (Shen, 2005; Li, 2018; Huang, 2020).

Xitoy tili fani o‘qituvchilari o‘quvchilarni o‘qishga yanada faolroq jalb qilish uchun imkon qadar turli zamonaviy usullar va pedagogik texnologiyalardan foydalanishga tayyor bo‘lishlari kerak.Shu metodlar yordamida bola xitoy tilini nafaqat o‘qiy oladi, balki tushunadi va mustaqil o‘qishga o‘tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q., Qodirov N. Xitoy tili: O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Zhao, Y. Teaching Chinese as a Foreign Language. — Beijing: Beijing Language and Culture University Press, 2018.
3. Lü, Shuxiang. Modern Chinese Grammar. — Beijing: Commercial Press, 2017.
4. Chen Lin “Bolalar uchun xitoy tili asoslari” — Pekin: Sinolingva Press, 2019.
5. Li, Xiaoqi. “Developing Reading Skills in Young Chinese Learners.” Journal of Early Language Education, 2021, №4, pp. 45–52.
6. Huang, Mei. Chinese Characters for Beginners. — Shanghai: East China Normal University Press, 2020.
7. Wang, J. “Using Visual Aids in Teaching Chinese to Children.” Asian Language Learning Review, 2020.
8. Sun, L. Teaching Mandarin Tones to Children. — Hong Kong: Mandarin Learning Center, 2019.
9. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Xalqaro tillarni o‘qitish metodikasi. — Toshkent, 2021.